

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“SOLIQLAR VA SUG'URTA ISHI”

KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 657:336.2(575.1)

RAHMONQULOV TEMIRBEK ESHMAMATOVICH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATINING HOLATI
VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

60410200 – “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH ”

mutaxassisligi bo'yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A


Ilmiy rahbar:


I.f.n. prof. Mutalova D.M


Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

_____ -sonli bayonnoma " _____ " _____ 2023 y.

Kafedra mudiri: prof. Tuxliyev B.K.  23.05.2023
imzo sana

Ilmiy rahbar: prof. Mutalova D.M.  23.05.2023
imzo sana

Tinglovchi: Rahmonqulov T.E.  23.05.2023
imzo sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023 yil " _____ " _____
№ _____ raqami bilan ro'yxatga olindi.

Dekan _____ prof. A.U.Burxanov

Annotatsiya

Mamlakatimiz iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida barqaror iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, soliq siyosatini takomillashtirish orqali qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik hamda tadbirkorlarga ko'proq qulaylik berish orqali aholiga yengilliklar, jumladan, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlar va g'ovlarni bartaraf etishga erishish hamda aholi bandligini ta'minlash va ularning faoliyatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda soliqlar orqali rag'batlantirish soliq siyosatining muhim ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu ilmiy ishda, O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar, soliq siyosati yutuqlarlari va kamchiliklari, foyda solig'i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'zgarishlari keltirilgan. Soliq siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar natijasida xufyona pul aylanmasi, soliqlardan qochish va soliqlarni kamaytirib ko'rsatish holatlari o'rganib chiqdik. Soliq siyosati natijasida davlat budjetiga tushayotgan tushumlar o'zgarishi foyda solig'i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i natijalari orqali tahlil qildik. Bundan tashqari foyda solig'i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq turlarining oxirgi besh yildagi davlat budjetidagi ulushi qanchani tashkil etganligi va berilayotgan imtiyozlarning iqtisodiyotimizga tasiri chuqur tahlil qildik. Olingan ma'lumotlar asosida xulosalar va yechimlar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi, soliq siyosati, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, foyda solig'i, soliq turlari, davlat budjeti, tadbirkorlik.*

Annotation

To ensure stable economic growth in the conditions of modernization of the economy in our country, to improve the tax policy and create a favorable business environment, to provide relief to the population by giving more freedom to entrepreneurship and entrepreneurs, including the creation of vacant jobs, to achieve the elimination of obstacles and obstacles to the development of small business and private entrepreneurship, and ensuring the employment of the population and supporting their activities by the state and stimulating them through taxes is one of the important priority tasks of the tax policy.

In this scientific work, the changes in the tax policy of the Republic of Uzbekistan, the achievements and shortcomings of the tax policy, the changes in the profit tax and the income tax from individuals are presented. As a result of the changes in the tax policy, we have studied cases of secret money circulation, tax evasion and tax understatement. As a result of the tax policy, we have analyzed the changes in the revenues coming to the state budget through profit tax and income tax from individuals. In addition, we analyzed in depth the share of profit tax and personal income tax in the state budget in the last five years and the impact of the given benefits on our economy. Based on the received information, we developed conclusions and solutions.

Key words: *Republic of Uzbekistan, tax policy, profit tax, income tax from individuals, types of taxes, state budget, entrepreneurship.*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
KIRISH.....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	11
Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	14
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	14
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
I-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
1.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	16
1.2. Soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi tutgan o‘rni.....	26
1.3. O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini amalga oshirish jarayoni	28
II-BOB. METODOLOGIYA.....	36
2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning amaldagi holati.....	36
2.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning amaldagi holati.....	40
2.3. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining holati.....	43
III-BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	46
3.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining muammolari.....	46
3.2. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini rivojlanish tendensiyalari.....	59
XULOSA.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	65

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini soliqlarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatidagi o‘zgarishlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga berilayotgan soliq imtiyozlari mamlakatimizda tadbirkorlik salohiyatini yanada oshiribgina qolmay, xalqimizga sifatli, qulay va hech qanday muammolarsiz mahsulotlar yetkazilib berilishini ta‘minlayapti. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati endilikda jahon andozalariga har tomonlama to‘g‘ri keluvchi raqobatli bozor munosabatlarini yo‘lga qo‘ya oladi.

Mazkur ilmiy ishda O‘zbekiston Respublikasining siyosatining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini yoritib berilgan. Bugungi kunda soliq siyosatini muntazam takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlariga bir qator qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonida (Farmon, 2022) “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”¹gi farmoniga asosan 2023-yildan QQS stavkasini 12 foizgacha va 2025 yildan banklar, moliya va telekommunikasiya kabi tadbirkorlik yo‘nalishlaridagi foyda solig‘i stavkasi 15 foizgacha tushirish ko‘zda tutulgan.

Jahon amaliyotida soliq siyosatini o‘zgartirish orqali soliq imtiyozlarini qo‘llash, ularning samaradorligini ta‘minlash orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish dastaklaridan keng foydanilmoqda.

Soliq yuki va uning oqibatlarini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmoni (Farmon, 2018) “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga to‘g‘risida”²gi farmoni e‘lon qilindi. Farmonda soliq yuki xaqida quyidagicha keltirib o‘tilgan “Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi PF-5468-son